

## TASVIRIY SAN'AT DARLARIDA KO'RGAZMALI QUOLLAR TAYORLASH METODIKASI

**Abdumatalov Xasanboy Doniyorbek o'g'li**

ADPI Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi yo'nalishi talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada asosan Tasviriy san'at darslarida ko'r gazmali quollar taylorlash va metodikasi haqida ma'lumot beradi. Ko'r gazmali quollar tayyorlash tasviriy san'at darslarini o'qitishning muhim qismidir.

**Kalit so'zлari:** Rang, dizayn, kompozitsiya, metod, pastel, rangli bo'r , akvarel.

### ABSTRACT

The article mainly provides information about the preparation and methodology of visual aids in Fine Art classes. Preparation of visual aids is an important part of teaching art classes.

**Key words:** Color, design, composition, method, pastel, colored chalk, watercolor.

### KIRISH

Tasviriy san'atni o'qitishda g'oyat murakkab jarayonlar sodir bo'ladiki, bu davrda o'qituvchi bir necha metod va uslublardan foydalanadi, bunday metodlardan biri «Aralash metod» deb ataladi. Tasviriy san'atning barcha darslarida «Aralash» metodidan ham foydalaniladi. Qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, o'z navbatida, sohaning huquqiy asoslari takomillashtirilishini talab etiladi. Amaldagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun esa bundan 22 yil avval qabul qilingan. Qonun loyihasini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mas'ul qo'mitalari hamda ishchi guruhlari tomonidan bir necha bor muhokamalar o'tkazildi. Natijada yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan shu yili 7-avgust kuni ma'qullandi.

### ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA

Mashg'ulotning asosiy maqsadi o'quvchilar tomonidan tuzilgan dars konseptini mavzulariga ko'r gazmali quollar tayyorlashni metodik jihatdan o'rgatish.

Har bir tayyorlangan ko‘rgazmali qurol darsning maqsadini to‘liq yoritib berishi kerak. Bo‘lajak dars mavzuining yoritilishi mobaynida baravar ko‘rgazmali qurolning metodik g‘oyasini eskizi chizib borilsa, maqsadga muvofiqdir. Dastlabki ko‘rgazmali qurol eskizlari metodist o‘qituvchi bilan bir fikrga kelib tasdiqlangandan so‘ng, belgilangan bir vatman qog‘ozi betiga did bilan rangda ishlanadi (bajariladi). Ko‘rgazmali qurol eskizlarini bajarishda o‘quvchi quyidagi talablarni e’tiborga olishi shart:

- maktab dasturidagi tasviriy san’at faniga muvofiqligi;
- didaktik prinsip va qoidalari asoslariga rioya qilgan holda ishlash;
- shaxsning garmonik rivojlanish xususiyatlarini faol shakllantirishga yordam berish.

Ko‘rgazmali qurolning badiiy bezagi o‘z funksional vazifasiga loyiq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘quv jadvali «bosiq» ranglar bilan bajarilishi lozim. Kompozitsion tuzilishning yechimini o‘ylab topish ham muhimdir. Har xil ortiqcha bo‘lgan tasvirlar bilan to‘ldirishning ham hojati yo‘q. O‘quv quollarining bosh yozuvlari (sarlavhalari) qisqa bo‘lishi, uning asosiy g‘oyasini aks ettirishi lozim. Ravon o‘qiladigan shrift tanlangan bo‘lishi kerak. Ko‘rgazmali qurolning sarlavhasi undagi tasvirlarga nisbatan joylashtiriladi. Ko‘rgazmali qurol tayyorlashda tush, guash, ko‘mir tayoqchasi, sangina, pastel, rangli bo‘r, akvarel kabilardan foydalaniadi. Plakatlarda tasvirlarning bosqichlari, suv bo‘yoqda ishlash sirlari, perspektiv qisqarish sirlari va qonunlari, amaliy ishlarning bosqichma-bosqich bajarilish yo‘llari ko‘rsatiladi. Ko‘rgazmali quollar tasviriy san’at darslarining barcha turlari (naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, dizayn, san’atshunoslik asoslari, haykaltaroshlik)da qo‘llaniladi. Tasviriy san’atdan ko‘rgazmali quollar qo‘llanish vazifalariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Darslarda ko‘pincha bosqichmabosqich ko‘rsatuvchi plakatlar qo‘llaniladi. Bunday ko‘rgazmali quollarni bo‘lg‘usi kichik mutaxassis naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, dizayn kabi darslariga mo‘ljallab tayyorlashlari lozim.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko‘rgazmali quollar tasviriy san’at darslarining barcha turlari (naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, dizayn, san’atshunoslik asoslari, haykaltaroshlik)da qo‘llaniladi. Tasviriy san’atdan ko‘rgazmali quollar qo‘llanish vazifalariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Darslarda ko‘pincha bosqichmabosqich ko‘rsatuvchi plakatlar qo‘llaniladi. Bunday ko‘rgazmali quollarni bo‘lg‘usi kichik mutaxassis naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, dizayn kabi darslariga mo‘ljallab tayyorlashlari lozim. Mavzuli kompozitsiya ishlash darslarida qo‘llaniladigan

ko‘rgazmali qurollari orqali tasvirlash ketma-ketligi bir necha bosqichlarda ko‘rsatiladi:

1. Ma’lum mavzu bo‘yicha tasvirlanadigan rasmlarning variantlarining tuzilishlari ko‘rsatiladi.
2. Kompozitsiyaning asosiy elementlarini tasvirlash.
3. Katta va kichik o‘lchamlardagi ko‘rinishlarning aniq tuzilishini tasvirlash.
4. Narsalarning yorug‘ va soyalarini bo‘yoq bilan ishlash usullarini ko‘rsatish.
5. To‘liq tugallangan kompozitsiya.

Mavzuli kompozitsiya ishlash darslaridagi ko‘rgazmalilikning yana bir turi - rangtasvir asoslarini tasvirlash orqali ko‘rsatilishidir. Jozibali rang-barang bo‘yoqlar bilan rasm ishlashni o‘quvchilarga og‘zaki tushuntirish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun professor-o‘qituvchi alohida planshetga tortilgan qog‘oz chetida suvbo‘yoqlar bilan ishlash usullarini ko‘rsatishlari maqsadga muvofiqdir.

Ko‘rgazmali quollar o‘quvchilar o‘rganayotgan tushuncha va metodlarni tushuntirish va ko‘rsatishga yordam beruvchi slayd-shou, tarqatma materiallar, rasmlar, videolar, ko‘rgazmali va badiiy asarlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Samarali ko‘rgazmali quollarni tayyorlash uchun san’at o‘qituvchilari odatda ko‘rgazmali quollarning maqsadi va maqsadli auditoriyasini tushunishdan boshlaydilar. Ular mavzu yoki mavzuni tadqiq qiladilar, vosita va kerakli effektga qarab ko‘rgazmali quollar yaratish uchun mos vositalar, materiallar va texnikalarni tanlaydilar. San’at o‘qituvchilari tajriba o‘tkazish va yakuniy mahsulotni vizualizatsiya qilish uchun dastlabki dizayn yoki qo‘pol sxemalarni chizishlari va tafsilotlar, tekstura, rang va kompozitsiyaga e’tibor qaratgan holda ko‘rgazmali quollarni yaratish va takomillashtirishlari mumkin. Ular, shuningdek, kerak bo‘lganda ko‘rgazmali qo‘llanmalarni yaxshilash uchun animatsiya, ovoz va video kabi multimedia usullarini o‘z ichiga olishi mumkin. Ko‘rgazmali quollarni sinfda taqdimotdan oldin sinovdan o‘tkazish va takrorlash to‘g‘ri bajarilishi va vaqtini ta’minalash uchun muhim ahamiyatga ega. San’at o‘qituvchilari ko‘rgazmali quollarga tinglovchilar va vaziyatning ehtiyojlarini qondirish uchun o‘zgartirishlar kiritish uchun moslashuvchan va moslashuvchan bo‘lishi kerak. Shuningdek, ular kelajakda foydalanish uchun ko‘rgazmali qo‘llanmalarni xavfsiz va qulay tarzda saqlashi, tartibga solish va saqlashi kerak.

## XULOSA

Umuman olganda, ko‘rgazmali quollarni tayyorlash puxta rejallashtirish, tafsilotlarga e’tibor berish va taqdim etilayotgan mavzu yoki tushunchani chuqr anglashni talab qiladi. Samarali ko‘rgazmali quollar san’at o‘quvchilariga qiyin

tushunchalar va usullarni tushunishga yordam beradi va ularning o‘rganish tajribasini oshiradi. Amaliy metodika - ta’lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o‘rganadi. Pedagogik mahorat ko‘nikmalarini o‘rganish va uni egallashga qaratilgan ma’lum iste’dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyillar) mavjud bo‘lishini talab etadi, chunki tasviriy san’at pedagogikaning mashaqqatli va murakkab ham da mas’uliyatli sohasidir.

#### **REFERENCES:**

1. B.N. ORIPOV “TASVIRIY SANATNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI, DIDAKTIKASI VA METODIKASI” 2013
2. S.F.ABDIRASULOV “TASVIRIY SAN’AT O‘QITISH METODIKASI” 2012
3. Egamov X. Bo‘yoqlar bilan ishlash. - T.: «O‘qituvchi», 1981
4. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. - T., «Aloqachi», 2007.
5. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T.: «Fan va texnologiya) . nashriyoti, 2008.
6. Султанов, Х. Э., Анкабаев, Р. Т., Хасанова, Н. С., & Чориева, Н. Ш. (2017). Инновационные методы обучения на занятиях по изобразительному искусству. In Актуальные вопросы современной педагогики (pp. 103-105).